



THE PLACE AND SIGNIFICANCE OF THE NEWSPAPER “G’ALLAOROL OVOZI” IN THE HISTORY OF THE PRESS OF JIZZAKH REGION

Sharof Rashidov

PhD candidate

Jizzakh State Pedagogical University

sharofr58@gmail.com

Jizzakh, Uzbekiston

ABOUT ARTICLE

Key words: district press, local journalism, “G’allaorol ovozi”, Jizzakh region, “G’lla uchun”, editorial activity.

Received: 03.02.26

Accepted: 04.02.26

Published: 05.02.26

Abstract: This article provides a scholarly analysis of the formation and development stages of the “G’allaorol Ovozi” newspaper, which occupies an important place in the history of local journalism in the Jizzakh region. The study examines the newspaper’s activities during different periods, with particular emphasis on its contribution to the development of district-level press under the leadership of Aliboy Ergashev. In addition, the article analyzes the journalist’s multifaceted professional activity in a context marked by limited creative staff and printing resources, substantiating his significant contribution to the advancement of district journalism.

JIZZAX VILOYATI MATBUOTI TARIXIDA “G’ALLAOROL OVOZI” GAZETASINING O’RNI VA AHAMIYATI

Sharof Rashidov

Tayanch doktorant

Jizzax davlat pedagogika universiteti

sharofr58@gmail.com

Jizzax, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: tuman matbuoti, mahalliy jurnalistika, “G’allaorol ovozi”, Jizzax viloyati, “G’lla uchun”, muharrirlik faoliyati.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Jizzax viloyati mahalliy matbuoti tarixida muhim o‘rin tutgan «G’allaorol ovozi» gazetasining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari ilmiy tahlil qilingan. Gazetaning turli yillardagi faoliyati, xususan, Aliboy Ergashev rahbarligi

davrida tuman matbuotini rivojlantirishdagi xizmatlari yoritilgan. Shuningdek, mahalliy sharoitda ijodiy jamoa va matbaachilik imkoniyatlari cheklangan bo'lgan bir davrda jurnalistning ko'p qirrali faoliyati tahlil qilinib, uning tuman matbuoti taraqqiyotiga qo'shgan hissasi asoslab berilgan.

МЕСТО И ЗНАЧЕНИЕ ГАЗЕТЫ “ГАЛЛАОРОЛ ОВОЗИ” В ИСТОРИИ ПРЕССЫ ДЖИЗАКСКОЙ ОБЛАСТИ

Шароф Рашидов

Аспирант

Джизакский государственный педагогический университет

sharofr58@gmail.com

Джизак, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: районная пресса, местная журналистика, «Галлаорол овози», Джизакская область, «Галла учун», редакторская деятельность.

Аннотация: В статье проводится научный анализ этапов становления и развития газеты «Галлаорол овози», занимающей важное место в истории местной прессы Джизакской области. Рассматривается деятельность издания в различные годы, в частности вклад Алибоя Эргашева в развитие районной печати в период его редакторской деятельности. Также анализируется многогранная профессиональная деятельность журналиста в условиях ограниченных творческих и полиграфических ресурсов, обоснованно раскрывается его вклад в развитие районной журналистики.

Kirish. Jizzax viloyatida tuman matbuotini rivojlanishida “G‘allaorol ovozi” gazetasining alohida o‘rni bor. Bu gazetaga turli yillarda Hayitboy Haydarov, Sarimsoq Shoyzoqov, Juman Turdiyevlar muharrirlik qilishgan. Gazetani 1971- yildan 1988-yilga qadar Aliboy Ergashev boshqargan. 1965-yilda Bulung‘ur tumanidagi “Komunist” gazetasida muxbir bo‘lib ish boshlagan A.Ergashev keyinchalik “Baxmal hayoti”, “G‘allaorol ovozi” gazetalarida muxbir, bo‘lim mudiri, bosh muharrir o‘rinbosari, bosh muharrir, radioeshittirishlar muharriri vazifalarida ishladi . A.Ergashev tuman gazetasida ijodiy jamoa va matbaachilar yetarli bo‘lmaganligi tufayli maket tuzish, harf terish va sahifalash ishlarini bir o‘zi bajargan. A.Ergashev “G‘allaorol ovozi” gazetasi muharrirligidan so‘ng “Ishonch”, “Savdogar” va “Qadriyat” gazetalarida muxbir sifatida faoliyat olib bordi .

1933-yilda dastlab “G‘alla uchun” nomi bilan chop etila boshlangan “G‘allaorol ovozi” gazetasi sermazmun yo‘lni bosib o‘tdi. “G‘alla uchun” gazetasining birinchi muharriri Abdulla Rahimov bo‘lgan. A.Rahimov qariyb 3 yil gazetaga redaktorlik qilgan.

Tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak 1933-yillarda, mamlakatda iqtisodni mustahkamlash va rivojlantirish, omma o‘rtasida siyosiy ishni kuchaytirish, qishloq xo‘jaligida kolxozlarni iqtisodiy jihatdan mustahkamlash vazifasi turardi.

Ana shu vazifalardan kelib chiqib, 1933-yil sentabr oyidan G‘allaorol tumanidagi 51-MTS (mashina traktor stansiyasi) siyosiy bo‘limi qoshida “G‘alla uchun” gazetasi chiqa boshladi. Abdulla Rahimov gazetaga bosh muharrir qilib tasdiqlandi.

Gazetaning dastlabki nusxalari Jizzax bosmaxonasida bosilardi, - deb eslaydi faxriy jurnalist Ibodat Teshaboyeva. O‘sha paytda Jizzax tumani gazetasida kunduzi korrektorlik vazifasida ishlab, kechqurun tuman radiosiga diktorlik qilardim. Bu yerda Zomin tumani “Kolxoz g‘alabasi” gazetasi ham chop etilardi. Biz “G‘alla uchun” gazetasi xodimlariga ko‘maklashib turar edik. Ana shu hamkorlik, ana shu yaqinlik keyinchalik meni “G‘alla uchun” redaksiyasiga ishga yetakladi. Gazeta har besh kunda bir marta 6 ming nusxada bosilardi.

Gazeta katta mashaqqatlar bilan chiqarilardi: harf teruvchi xam, sahifalovchi ham, redaksiya xodimlari ham — praktik matbaachi, praktik jurnalistlar edi. Ular qo‘llarida hech qanday qo‘llanma bo‘lmagan holda ishlab, bilganlarini bir-biriga o‘rgatib borishar, shu bilan birga nazariy bilimlarini kitob va jurnal mutoalaa qilish orqali asta-sekin oshirib borar edilar.

O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi, respublika miqyosidagi shaxsiy pensioner, jurnalistlar uyushmasining a‘zosi Toji Odilov “G‘alla uchun” gazetasining birinchi redaktori Abdulla Rahimov haqida quyidagilarni esladi:

“G‘alla uchun” gazetasining redaktori Abdulla Rahimovni yaxshi tanir edim. U asli chinovlik bo‘lib kunu-tun berilib ishlardi. Gazetada prinsipial masalalarni ko‘tarib chiqardi. U tumanda bosilgan birinchi gazetaning dastlabki tashkilotchisi va murabbiysi buldi. Jurnalistika va matbaa sohasida birinchi boshlovchi kadrlarni tarbiyalash ishiga katta hissa qo‘shdi.

1933-yilda bir varoq — ikki sahifada “G‘alla uchun” nomi bilan chiqa boshlangan “G‘allaorol ovozi” gazetasi 1966-yilda “Mehnat bayrog‘i” deb nom berildi. 1991-yil noyabr oyidan “G‘allaorol ovozi” nomi ostida chiqa boshladi.

Gazetaning nomi, bayrog‘i, nishonlari bir necha marta o‘zgargan bo‘lsada, uning bosh yo‘li, bosh maqsadi xalqqa beminnat xizmat qilish, elning, yurtning tashvishi va quvonchlariga sherik bo‘lish mas’uliyati o‘zgarmadi.

30-40-yillarda gezataning dastlabki muharrirlari Temir Najimiy, Pirmuhammad Ahmedov, Ibodat Teshaboyevalar shunigdek shu yillarning faol muxbirlari M.Zamonov, A.Nasriddinov, M.Ibragimov, X.Umarovlar faoliyat yuritishgan.

XX-asrning 50-yillari oxiri va 60-yillarga yaqin davrda gazetaning rivojida E.O'rolovning faoliyati alohida o'rin tutadi. 1950-1958-yillarda u mas'ul kotib lavozimida ishlagan bo'lib, aynan shu yillarda gazeta muntazam ravishda haftada ikki marta chop etilib turdi va bu uning o'quvchilar bilan barqaror aloqada bo'lishiga imkon yaratdi. .

G'allaorol tumani qayta tashkil etilganidan so'ng 1965-yildan bosmaxona va gazeta tahririyati o'z faoliyatini boshlagan. Bu davrda muharrir etib Sarimsoq Shayzoqov tayinlangan . Gazetada "Turtki" rukni ostida ko'plab tanqidiy maqolalar va fe'letonlarning berilishi mushtariylar sonining keskin oshishiga sabab bo'lgan.

1980-yillarda G'allarol tuman bosmaxonasi direktori Turg'unali Toshtemirov davrida bosmaxona jamoasi shaxsiy besh yillik topshiriqlarni muddatidan oldin bajarishgan. Bu natijalarga erishishda tuman bosmaxonasida ishlagan Ibrohim Qushbekov, Xolboy Boytemirov, Antonina Nikolayeva, Maxzuma Quدراتova singari mutaxassislarning xizmati katta bo'lgan. Shuningdek bu davrda bosmaxona barcha imkoniyatlarga ega bo'lgan, yangi xarf teradigan, gazeta bosadigan texnikalar bilan jixozlangan binoga ko'chib o'tishgan.

"Mexnat bayrog'i" (hozirgi "G'allaorol ovozi") gazetasida o'zining ilk faoliyatini boshlagan taniqli jurnalistlardan yana biri Toshqul Beknazarov hisoblanadi. T.Beknazarov nafaqat Jizzax viloyatida balki, respublikada ham taniqli jurnalistlardan biri hisoblanadi. T.Beknazarovning maqolalari o'quvchiga yangi fikr berishi, o'quvchilar sirtidan ko'rib turgan narsaning ichiga va ortiga nimalar yashiringanligini ham anglata olishi bilan ajralib turadi.

Toshqul Beknazarov G'allaorol tumanining "Mexnat bayrog'i" gazetasida ishlab yurgan paytlaridayoq o'qimishli, ta'sirli maqolalari, lavxa va ocherklari bilan tanilgan edi . T.Beknazarov keyinchalik O'zbekiston Milliy Axborot agentligining Jizzax viloyat muxbiri sifatida samarali faoliyatini davom ettirdi. 2010-yil O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning farmoniga binoan "Shuxrat" medali bilan mukofotlandi .

Har bir matbuot nashri yuzlab chet avtorlarga ega bo'lishi ishning muvaffaqiyatini hal etadi. Bu, ayniqsa matbuotning eng hozirjavob vositasi — gazeta uchun zarur. Zero, gazeta ishini yaxshilashda, materiallarni tezkorlik bilan yoritishda ishchi va qishloq muxbirlari asosiy tayanch hisoblanadi. Matbuotning oltin fondi bo'lgan ana shu tayanch qancha ishonchli bo'lsa, ish shuncha soz yurishadi.

1972-yillarda "Mehnat bayrog'i" gazetasi tevaragiga 200 ga yaqin qishloq muxbirlari uyushgan. Ularning 100 nafari doimiy aktivlar bo'lgan. Mana shu muxbirlarning xatlari,

maqolalari, korrespondensiyalari, reportajlari tufayli gazeta joylardan doimiy ravishda ko'z-quloq bo'lib turgan.

Ishchi va qishloq muxbirlari gazetaning aktiv tayanchi bo'lgach, ularni nazariy hamda amaliy bilimlar bilan qurollantirish muhim ahamiyatga ega hisoblangan. Shuning uchun qishloq muxbirlari harakatini kengaytirish, ularga amaliy yordam uyushtirish maqsadida tahririyat qoshida 1970-yildan boshlab ishchi va qishloq muxbirlari to'garagi mahorat maktabi faoliyat ko'rsata boshlagan. Dastlab to'garakka 30 nafar turli kasb egalari jalb qilingan.

Mahorat maktabi mashg'ulotlari aniq dastur asosida tashkil etilgan bo'lib, mashg'ulotlarni asosan redaksiya xodimlari olib borishgan. Tinglovchilarga "Gazeta janrlari", "Mexnatkashlar xatlari bilan ishlashning forma va metodlari", "Jurnalistning ijodiy laboratoriyasi", "Gazeta chiqarish texnikasi", "Reportaj va korrespondensiya ustida ishlash" kabi mavzularda o'qilgan ma'ruzalar ancha qiziqarli bo'lgan.

1975-yilda ishchi muxbirlar maktabida 20 nafar ishchi-qishloq muxbirlari o'z bilimlarini mustahkamladilar. Ular "Sovet matbuotining prinsiplari", "Xabarni ishlash forma va metodlari", "Gazeta chiqarish texnikasi", "Jurnalistning oddiy laboratoriyasi" kabi mavzularda ma'ruza va suhbatlar tinglashgan. Bularning natijasida tuman gazetasining saviyasi 1974-yilga qaraganda birmuncha yaxshilangan. Hasan Esirgapov, Nina Normatova, Xayitboy Ummatov singari jamoatchi muxbirlar gazeta sahifalarida muntazam ravishda maqola va habarlari bilan qatnashib turishgan. Ishchi-qishloq muxbirlari maktabini tugatgan yigitlarning aksarlari bu davrda Toshkent davlat universitetining jurnalistika fakultetida ta'lim ham olishgan. Maktabni tamomlagan Ahmad Bolbekov, Meliboy Hakim Hakimov singari yigitlar tahririyatda ishlashgan.

Jizzax viloyatining eng keksa gazetalaridan biri G'allaorol tuman "Mehnat bayrog'i" gazetasining eng yaxshi an'alaridan biri uning har bir soni ishchi-qishloq muxbirlarining xati asosida chiqishi bo'lgan. Mehnatkashlarning dolzarb mavzulardagi xatlari "Tahririyatga xat", "Shu kunning mavzusida" kabi ruknlarda berilgan.

Tahririyatga kelgan xatlarni guruhlashning xilma-xil shakllari bo'lgan. Xatlarning hududiy o'rniga qarab "Bir sovxoz xabarlari", "Bir korxona hayoti", mavzusiga qarab "Qurilishdan xatlar", "Maktab xabarlari", "Madaniyat qurilishidan xatlar", "Shahar yangiliklari" kabi to'plamlar berib borilgan.

Bundan tashqari butun sahifani mehnatkashlarning xatlari asosida tuzish gazetaning ommaviyligini ta'minlaydigan usullardan biridir. Bunday sahifalar "Ishchi va qishloq muxbirlari xabar qiladilar", yoki "Konvertlarni ochganda" umumiy sarlavhalar ostida berilib, unda turli mavzudagi katta-kichik xat-xabarlardan foydalanilgan. Mehnatkashlarning xatlarini to'liq sahifa qilib berish tajribasidan 1977-yilda ayniqsa samarali foydalanilgan. Tahririyat SSSR yangi

Konstitusiyasi muhokamasiga kelgan xatlarni muntazam berib borish bilan birga, tez-tez shu xatlar asosida maxsus sahifalar ham tashkil qilgan.

“Mehnat bayrog‘i” gazetasida mehnatkashlarning xatlarini yoritishning yana bir metodi — xatni sharhlash usuli qo‘llanilgan. Bu shunday bo‘lgan: gazetxon o‘zini qiziqtirgan biron mavzuda, yoki muammoli masalada yoki biron bir maslaxat so‘rab tahririyatga xat yo‘llaydi. Tahririyat ko‘pincha bu xatning o‘zini yoritish bilan birga uni sharhlab ham bergan. Xat asosidagi sharh tahririyat bo‘limi yoki bevosita shu masalaga aloqador tashkilotning mas‘ul xodimi tomonidan yozilgan.

1978-yilda gazetaga 1500 dan ziyod ishchi-qishloq muxbirlari ulangan bo‘lib, shulardan 100 dan ziyodi doimiy muallif hisoblangan. Gazeta 1975-yilda mehnatkashlardan 200 ta, 1976-yilda 2350 ta, 1977-yilda va 1978-yillar davomida 5000 ta xat-xabar olgan. Bu xatlarning deyarli 90 foizi doimiy ravishda gazeta sahifalarida yoritilgan .

Tuman gazetalarida shtatda maxsus xatlar bo‘limi mavjud bo‘lmagan. “Mehnat bayrog‘i” tahririyatida bu ish madaniyat va turmush bo‘limi zimmasiga yuklatilgan. Lekin xatlar bilan ishlash bitta bo‘limga maxsus yuklatib qo‘yilganligi tahririyatning boshqa xodimlarini mas‘uliyatdan soqit qilmagan.

G‘allaorol tuman “Mehnat bayrog‘i” tahririyati jamoasi keng mehnatkashlar ommasi, ishchi-qishloq muxbirlariga tayangan holda partiya XXV-syezdi qo‘ygan vazifalarning tumanda bajarilishini ta‘minlashda targ‘ibotchi va tashkilotchi sifatidagi o‘rni oshirib borgan .

1933-yildan 1981-yilgacha “Mehnat bayrog‘i” gazetasining 6355 soni o‘quvchilar qo‘liga yetib bordi. Gazetaning tiraji 1981-yilga kelib 4150 nusxaga yetdi. Bu davrda gazetada faoliyat olib borgan jamoadan 3 nafari SSSR Jurnalistlar Ittifoqining a‘zosi bo‘lgan. Gazetaning o‘qimishlilikini oshishida ijodiy xodimlar bilan bir qatorda ishchi-qishloq muxbirlarinng o‘rni juda katta bo‘lgan.

Quyi matbuot – devoriy gazetalar vaqtli matbuotning asosiy qismi hisoblanadi. Tuman tashkilotlarida chiqarilgan o‘nlab devoriy gazetalar ishlab chiqarishni yanada rivojlantirishga ijobiy ta‘sir ko‘rsatdi. Jumladan, “G‘allaorol” sovxozida chiqadigan “Za urojay”, Qo‘ytosh boshqarmasining “Gornyak”, 7-kuchma mexanizatsiyalashgan kolonnaning “Stroitel”, Lenin nomli sovxozining “Mo‘l hosil uchun” devoriy gazetolari ishlab chiqarish ilg‘orlarining ish tajribalarini yoritishgan .

1985-yilga kelib G‘allaorol tumanida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida 160 dan ortiq, sanoatda 35 ta, madaniy xizmat shahobchalarida 16 ta, tibbiyot muassasalarida 63 ta, maktab va maorif tizimida 700 ta, qurilish tashkilotlarida 12 ta, transport, aloqa, savdo korxonalari hamda tashkilotlarida 30 ta va boshqa muassasalarda ko‘plab devoriy gazetalar mehnatkashlarni

kommunistik ruhda tarbiyalashda aktiv faoliyat ko'rsatgan. Bu devoriy gazetalar partiya matbuoti lenincha tizimlariga har jihatdan amal qilib, tashfiqotchi sifatida ish yuritgan .

Xulosa qilib aytganda, "G'allaorol ovozi" gazetasi Jizzax viloyati tuman matbuotini rivojlantirishda muhim o'rin tutgan nashr sifatida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, Aliboy Ergashevning ko'p yillik muharrirlik faoliyati mahalliy jurnalistikada kasbiy mahorat, fidoyilik va tashabbuskorlik namunasi hisoblanadi. Gazeta faoliyati misolida tuman matbuotining jamiyat hayotidagi ahamiyati va uning tarixiy rivojlanish bosqichlarini ilmiy jihatdan o'rganish muhim ekanligi yana bir bor tasdiqlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov A. Nurli manzaralar oshig'i // Ezgulik bekatlari. J.: Sangzor, 1999. – B. 5.
2. Saidov A. Sermazmun umr // Hayot ko'zgusi fidoyilari (Jizzax jurnalistikasi).T.: Navruz, 2014. – B. 64.
3. 27 iyun-Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni. Bizning bayram // G'allaorol ovozi. — 2021.-23 iyun, № 31 (9118).
4. A.Ergashev. Birinchi muharrir «Muxbir» jurnali 6-son, 1986 yil // So'zga oshufta ko'ngil. J.: Sangzor, 2009. – B. 21.
5. Beknazarov T. Tarix qariga bitilgan zarvaraq // Jizzax haqiqati. — 1993.-24 iyun, № 69 (3189).
6. O'rolov E. Shonli yo'lni bosib // Mehnat bayrog'i. — 1975.-05 noyabr, № 134 (5500).
7. Otamurodov A. Jizzax viloyatidagi bosma ommaviy axborot vositalari // Hayot ko'zgusi fidoyilari (Jizzax jurnalistikasi).T.: Navruz, 2014. – B. 92.
8. 27 iyun-Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni. Bizning bayram // G'allaorol ovozi. — 2021.-23 iyun, № 31 (9118).
9. O'zR Jizzax viloyati davlat arxivi (JVDA). C-0077-fond, 1-ro'yxat, 339 yig'ma jild, 41-varaq.
10. Xo'Jamberdiyev T. Jizzax yangiliklarining jarchisi // Jizzax haqiqati. — 2011.-30 aprel, № 38 (5137).
11. Yo'ldasheva SH. Hamisha ta'zimdaman // Jizzax haqiqati. — 2018.-02 may, № 35 (5871).
12. A.Ergashev. Ishonchli tayanch. «Zarafshon» avvalgi («Lenin yo'li») gazetasi, 1972 yil 5 may // So'zga oshufta ko'ngil. J.: Sangzor, 2009. – B. 6.

13. O‘zR Jizzax viloyati davlat arxivi (JVDA). C-0077-fond, 1-ro‘yxat, 72 yig‘ma jild, 49-varaq.
14. O‘zR Jizzax viloyati davlat arxivi (JVDA). C-0077-fond, 1-ro‘yxat, 72 yig‘ma jild, 55-varaq.
15. O‘zR Jizzax viloyati davlat arxivi (JVDA). C-0077-fond, 1-ro‘yxat, 221 yig‘ma jild, 48-varaq.
16. O‘zR Jizzax viloyati davlat arxivi (JVDA). C-0077-fond, 1-ro‘yxat, 221 yig‘ma jild, 53-varaq.
17. O‘zR Jizzax viloyati davlat arxivi (JVDA). C-0077-fond, 1-ro‘yxat, 397 yig‘ma jild, 52-varaq.
18. O‘zR Jizzax viloyati davlat arxivi (JVDA). C-0077-fond, 1-ro‘yxat, 596 yig‘ma jild, 72-varaq.